

9 - ilova Namunaviy shakl

**YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLLARIKA BANK HISOBVARAG'LARINI
OCHISH VA ULARGA MASOFADAN TURIB (DISTANSION) ELEKTRON BANK
XIZMATLARINI KO'RSATISH HAMDA KORPORATIV BANK KARTALARIDAN
FOYDALANISH BO'YICHA
OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI**

Ushbu bilan, «Ipoteka-bank» ATIB (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub'ektlariga (bundan buyon shartnoma matnida “Mijoz” deb yuritiladi) Bank hisobvarag’larini ochish va ularga masofadan turib (distansion) elektron bank xizmatlari ko’rsatish hamda korporativ bank kartalaridan foydalanish uchun taqdim etish to’g’risidagi ommaviy elektron oferta shartnomasini (bundan buyon shartnoma matnida “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzishni O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasiga muvofiq taklif qiladi.

Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani akseptlash bankka hisobvaraq ochish to’g’risidagi arizani taqdim etish orqali amalga oshirilib, ushbu orqali Mijoz mazkur shartnomada ko’rsatilgan tartibda va hajmda bank bilan ushbu shartnomani tuzishga roziligidini bildirgan hisoblanadi.

Mijoz mazkur Shartnoma matni bilan Banking korporativ veb-saytida hamda Bank ofislarida tanishib chiqishi mumkin.

I. SHARTNOMADA FOYDALANILADIGAN ATAMALAR

1.1.Mazkur Shartnomada quyidagi atamalardan foydalaniladi:

Bank hisobvarag'i — bank hisobvarag'i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvaraq egasi) hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvarag'idagi tegishli mablag'larni o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to’g’risidagi topshiriqlarni bajarish vazifasini o’z zimmasiga olishi natijasida bank va mijoz o’tasida vujudga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasи.

Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i — mijozlarning birinchi talabi bilanoq beriladigan yoki o’tkazib beriladigan mablag'larning hisobi yuritiladigan hisobvaraq.

Masofaviy bank xizmatlari – “Internet-bank”, «Mobil-bank» va «SMS-bank» tizimidan foydalanish xizmat turlari.

“Internet-bank” xizmati – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo‘lib, mijozga internet axborot-telekommunikatsiya tarmog‘idan foydalangan holda uning bankdagи hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko’rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi.

“Mobil-bank” xizmati – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo‘lib, mijozga internet axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i orqali “iOS”, “Android” yoki “JAVA” operatsion tizimlarida ishlaydigan mobil telefoni yoki planshetidan foydalangan holda bankdagи hisobvarag'iga masofadan turib xizmat ko’rsatish imkonini beruvchi xizmat turi hisoblanadi.

“SMS-bank” xizmati – avtomatlashtirilgan elektron tizim bo‘lib, mijozga uyali aloqa operatorlari xizmatidan foydalangan holda mobil telefoni yoki planshetiga hisobvarag'idagi amaliyotlar haqida ma'lumotlarni SMS ko'rinishida taqdim etib turuvchi xizmat turi hisoblanadi.

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, ya’ni fayl ko’rinishidagi yoki ma'lumotlar bazasidagi bir yoki bir necha yozuvlar ko’rinishidagi baytlarning yig’indisi bo’lgan, Tizim dasturiy

ta'minoti yordamida tayyorlangan, to'lov topshiriqnomasi yoki Mijozning boshqa axborotlarini o'zida jam qiluvchi, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjat hisoblanadi.

Elektron raqamli imzo (ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron hujjatni autentifikatsiya qilish (mualliflikni va yaxlitlikni tasdiqlovchi) imkoniyatini beradigan imzo.

Shubhali operatsiya — tayyorlash, sodir etish jarayonida bo'lgan yoki sodir etib bo'lingan, mazkur Qoidalarni amalga oshirish jarayonida tijorat bankida uni jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi to'g'risida shubha paydo bo'lgan operatsiya.

Mijozning xodimlari – Mijoz bilan mehnat munosabatlarda bo'lgan jismoniy shaxslar.

Korporativ bank karta («Karta») – milliy valyutadagi bank karta, tovar va xizmatlar hamda O'zbekiston Respublikasi xududida xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun mo'ljallangan personifitsirlangan to'lov vositasi hisoblanib, ta'minot sifatida korxona karta xisobvarag'i xisoblanadi. Karta Bank tomonidan chiqariladi, Bank mulki xisoblanadi hamda vaqtinchalik foydalanish uchun bank tomonidan belgilangan muddatga beriladi. Kartadan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu shartnoma bilan tartibga solinadi.

Bank karta egasi – Mijoz xodimi xisoblanib, Bank tomonidan uning nomiga hamda uning foydasiga karta chiqariladi.

Bank karta hisobvarag'i – karta egalari tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlarni xisobga olish uchun tashkilotning bankdagi hisobvarag'i.

Karta bo'yicha hisobot – mijoz tomonidan amalga oshirilgan karta operatsiyalarini aks ettiruvchi bank tomonidan tuziladigan xujjat.

Xarajat limiti – karta bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan, tashkilot tomonidan belgilangan karta bo'yicha sarf limiti.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma bank tomonidan Mijozning arizasiga ko'ra amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq, bank hisobvaraqlarini (bundan buyon «hisobvaraq» deb yuritiladi) ochish, uning hisobvarag'iga kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, Mijozning hisobvarag'idan tegishli pul mablag'larini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarini amalga oshirish, kassa xizmatlarini ko'rsatish, masofaviy xizmatlar dasturiy majmualari orqali elektron bank xizmatlarini ko'rsatish, korporativ (yoki tadbirdor) bank kartasi orqali amalga oshirilgan xisob-kitoblar bo'yicha Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Bank tomonidan Mijozning bankda ochilgan hisobvaraqlari bo'yicha ko'rsatiladigan masofaviy bank xizmatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Mijozga internet tarmog'i orqali "Internet-bank" tizimining funksional imkoniyatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlarini uzatish va qabul qilish, so'rovlariga muvofiq ma'lumotlar olish amaliyotlarini bajarish bo'yicha "Internet-bank" xizmatini ko'rsatish;

- Mijozning "Internet-bank" tizimi orqali kelib tushgan elektron to'lov hujjatlariga Markaziy bankning elektron to'lov hujjatlariga ishlov berish bo'yicha talablari va nizomlariga muvofiq ishlov berish;

- Mijozning xodimlariga Smart Vista to'lov tizimi karta hisobvarag'iga pul mablag'ini o'tkazish uchun Mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov qaydnomalarining elektron almashinuv;

- Mijozning mobil apparatlari va/yoki planshetlarida internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda "iOS", "Android" yoki "JAVA" operatsion tizimlarida ishlaydigan "Mobil-bank" xizmat turini yuklash orqali uning bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib "Mobil-bank" xizmatini ko'rsatish;

- Mijozning uyali aloqa operatorlari xizmatidan foydalangan holda uning mobil telefoni va/yoki planshetiga hisobvarag'idiagi amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni "SMS" xabarlar tarzida taqdim etib turish yo'li bilan uning bankdagi hisobvarag'iga masofadan turib "SMS-bank" xizmati ko'rsatish. Bunda Mijozga uning bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha o'tkaziladigan har bir bank amaliyoti unga SMS xabar orqali avtomatik tarzda ma'lum qilinib boriladi.

2.3. Mijoz yuqorida keltirib o'tilgan "Internet-bank", "Mobil-bank" va "SMS-bank" xizmatlarini ixtiyoriy ravishda tanlaydi.

2.4. Mijoz www.ipotekabank.uz saytidan "Internet-bank" tizimiga kirishi va ushbu xizmat turi, shuningdek, "Mobil-bank" va "SMS-bank" xizmat turlari haqida barcha zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishi mumkin.

III. SHARTNOMANI IMZOLASH TARTIBI VA JOYI

3.1. Mijoz tomonidan ommaviy oferta shartnomasini akseptlashi, jumladan oferta shartlari bilan tanishganligi va roziligi yuzasidan o'z arizasida ma'lum qilgan hamda Mijozga tegishli bank hisobvarag'i ochilgan paytdan boshlab Bank va Mijoz o'rtasidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

3.2. Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani akseptlash bankka hisobvaraq ochish to'g'risidagi (Bank mijoji bo'lgan sub'ektlar "Mijozning mobil telefon qurilmasiga masofadan turib (distansion) elektron SMS-Bank xizmati ko'rsatish uchun", "Mijozning hisobvarag'iga masofadan turib (distansion) elektron Internet-Bank xizmati ko'rsatish uchun", "Yuridik shaxslarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga korporativ bank kartalarini ochish uchun") arizani taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

3.3. Shartnoma Mijozga bank hisobvarag'i ochilgan bank joylashgan yerda tuzilgan hisoblanadi.

3.4. Mazkur Shartnomada ko'rsatilgan amallarni bajarish:

- ushbu Shartnomani akseptlaganligi va Mijozning mazkur Shartnomada bayon etilgan shartlarda, tartibda va hajmda shartnomani imzolashga roziligini tasdiqlash sifatida e'tirof etiladi;

- mijoz Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisnosiz yoki cheklovlarsiz ularning shartlariga qo'shilish orqali qabul qilganligini anglatadi;

- mazkur Shartnomaning barcha shartlari bilan Mijozning tanishib chiqqanligini so'zsiz tasdiqlaydi.

3.5. Mijoz tomonidan bank hisobvarag'i Shartnomasining imzolanishi, Bank tomonidan tasdiqlangan Mijozning Komplayens shartlarini (ommaviy oferta shartnomasiga ilova) olganligi, tanishib chiqqanligi va ularga roziligini anglatadi.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Bank majburiyatları:

4.1.1. Mijozning arizasi va topshirig'iga muvofiq milliy valyuta va/yoki xorijiy valyutada hisobvaraq ochish, tushumlar maqsadi bo'yicha boshqa kerakli (oylik ish xaqi uchun, terminal uchun, korporativ karta uchun, pensiya va boshqa maxsus) hisobvaraqlar ochish shuningdek qonunchilikda ko'zda tutilgan barcha hisob-kitob kassa xizmatlarini ko'rsatish va hisob-kitob va kassa operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning amaldagi qoidalariiga qat'iy rivoja qilgan holda amalga oshirish, jumladan:

a) Mijoz hisobvarag'iga oid to'lov hujjati Bankka soat 16.00 gacha kelib tushgan holda, barcha rekvizitlar to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa shu kunning o'zida, soat 16.00 dan keyin tushgan holda keyingi bank kunida hisobga kiritish;

b) Mijozning pul mablag'larini unga tegishli bo'lgan bir hisobvarag'idan boshqasiga o'tkazish hamda boshqa shaxslarning hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'ini bajarish, shuningdek hisobvaraqa mablag' mavjud bo'lganda tegishli to'lov hujjati Bankka kelib tushgan kundan keyingi kundan kechiktirmay ijro etish;

v) Mijozning taqdim etgan to'lov talabnomalariga ko'ra, boshqa yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlardan unga tegishli bo'lgan pul mablag'larini undirib olishga doir topshirig'ini qonunchilik doirasida bajarish;

g) amaldagi qonunchilikka muvofiq Mijozdan naqd pul mablag'ini qabul qilish va berish yoki alohida shartnoma asosida plastik kartaga kirim qilish.

4.1.2. Mijoz bilan tuzilgan alohida shartnomaga asosan hisob-kitob–kassa xizmati ko'rsatishga bevosita taalluqli bo'lmagan boshqa xizmatlarni (kreditlash, faktoring, lizing, qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirish va saqlash hamda boshqa xizmatlar) ko'rsatish.

4.1.3. Mijozga bank ish kunlarida belgilangan ish tartibi rejimiga muvofiq xizmat ko'rsatish.

4.1.4. Bankka hisob-kitob hujjatlari (to'lov talabnomalari) kelib tushgan kuni Mijoz hisobvarag'idan mablag'larni faqat uning topshirig'i yoki roziligi asosida (akseptsiz to'lanadigan to'lov talabnomalari bundan mustasno) hisobdan chiqarish. Bank Mijozning hisobvarag'ida mablag' mavjud bo'lmagan yoki yetarli mablag' bo'lmagan holda, byudjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар, sud ijo hujjatlari, xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun asos bo'luvchi to'lov hujjatlari, shuningdek akseptsiz to'lanadigan hamda Mijoz tomonidan akseptlangan to'lov talabnomalarini 2-sonli kartotekaga joylashtiradi.

Internet-bank tizimiga ulangan mijozlarning hisobvaraqlaridan pul mablag'larini undirish uchun bankka kelib tushgan qog'oz shakldagi to'lov talabnomalarni avtomatlashtirilgan bank tizimiga 1-sonli kartotekaga kiritgan holda mijozning internet-bank tizimiga tanishishi uchun yuboradi.

Mijoz tomonidan internet-bank tizimi orqali akseptlangan yoki qisman rad etilgan elektron to'lov talabnomalar banklararo to'lovlар vaqtı tugamagan bo'lsa shu kunning o'zida, to'lovlar vaqtı tugagan bo'lsa keyingi ish kundan kechiktirmagan holda to'lovni amalga oshiradi yoki 2-sonli kartotekaga joylashtiradi.

Mijoz tomonidan belgilangan muddatda o'zining roziligi yoki to'lovdan to'laligicha yoxud qisman bosh tortishi to'g'risida ma'lum qilinmagan taqdirda, to'lov talabnomasi bank tomonidan umumiyl tartibda akseptlanadi hamda to'lov amalga oshiriladi.

4.1.5. To'lov asosida Mijozni hisob-kitob, kassa hujjatlari va boshqa blankalari bilan ta'minlash;

4.1.6. Mijoz talabiga ko'ra, uning o'ziga yoki ishonchli vakiliga (ishonchnoma asosida) bank tariflarida belgilangan haq evaziga mijozning kredit aylanmasi bo'yicha hisobvarag'idan ko'chirmani tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda berish.

4.1.7. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha bajarilayotgan amaliyotlarni sir saqlash, mijoz roziligesiz bank hisobvarag'iga oid amaliyotlar bo'yicha ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan hollardagina berish.

4.1.8. Mijozga hisob-kitob, hujjat aylanmasi tartibi va bevosita hisob-kitob-kassa xizmati ko'rsatishga taalluqli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha maslahatlar berish.

4.1.9. Mijoz hisobvarag'ida pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash.

4.1.10. Hisobvaraqa mablag' mavjud bo'lganda, ish haqi, pensiya va nafaqa to'lovi uchun pul mablag'lari berilishini ta'minlash yoki alohida shartnoma asosida jismoniy shaxslarning plastik kartalariga o'tkazish.

4.1.11. Belgilangan joyga kelib tushmagan pul mablag'larini Mijoz iltimosiga ko'ra qidirish, aniqlash va qaytarishda tarif asosida ko'maklashish.

4.1.12. Mijozni "Internet-bank" tizimida ro'yxatdan o'tkazish va uni ushbu xizmat turiga ulash;

4.1.13. Mijozga uning elektron raqamli imzosi bilan birga elektron kalit(lar)ni (yo'qolgan taqdirda) vaqtinchalik foydalanish uchun berish.

4.1.14. Mijozga masofadan turib hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish va uning topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan bank tizimiga oid barcha hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish.

4.1.15. Bankda o'rnatilgan to'liq operatsion ish kuni mobaynida Mijozga xizmat ko'rsatish, dam olish va bayram kunlari bundan mustasno.

Mijozning topshirig'iga ko'ra elektron to'lovlar tegishli elektron hujjat, agar u bank operatsion kuni mobaynida kelib tushgan bo'lsa, shu kunning o'zida amalga oshirilishi kerak. To'lov bank operatsion kuni tugagandan so'ng kelib tushganda, bank elektron to'lovni keyingi bank kundan kechiktirmasdan amalga oshirishi shart.

4.1.16. Mijozga Bank ish rejimiga muvofiq o'z vaqtida xizmat ko'rsatish (24/7 rejimidagi onlayn to'lovlar bundan mustano):

- Banklararo elektron hujjatlar soat 9:00 dan 16:00 ga qadar;
- Bank ichidagi hujjatlar soat 9:00 dan 17:00 ga qadar;
- Mijoz so'rovlari bo'yicha axborotlar soat 9:00 dan 17:30 ga qadar.

4.1.17. Kelib tushgan elektron qaydnomalarga, ularda dasturiy ta'minot ishida rad etishlar natijasida kelib chiqadigan xatoliklar bo'lmaganda, bir ish kuni mobaynida ishlov berish.

4.1.18. Mijoz arizasiga asosan 3 bank ish kundan kechiktirmasdan korporativ bank kartasini Mijozga foydalanish uchun berish.

4.1.19. Mijoz yozma murojaatiga asosan karta hisobvarag'i to'g'risidagi xisobotni bank tarifiga muvofiq haq evaziga taqdim etish.

4.1.20. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq banklar zimmasiga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4.2. Mijoz majburiyatlari:

4.2.1. Hisobvaraq ochish va operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni Bankka taqdim etish.

4.2.2. Milliy valyuta va/yoki xorijiy valyutada ochiladigan hisobvaraqlar uchun maqsadli tushumlar bo'yicha boshqa kerakli (oylik ish xaqi uchun, terminal uchun, korporativ karta uchun, pensiya va boshqa maxsus) hisobvaraqlar ochilishiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Banklarda ochiladigan bank hisobvaraqlari" to'g'risidagi 1948-sonli yo'riqnomasining 18-bandiga asosan ushbu shartnoma orqali o'z rozilagini bildiradi.

4.2.3. Mazkur shartnoma shartlariga rioya qilish, bankda belgilab qo'yilgan ish tartibi, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi normativ hujjatlari talablarini bajarish.

4.2.4. Bankning rasmiy axborotlari bilan, shu jumladan, bank xizmatlari ko'rsatish tariflariga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi axborotlar bilan mustaqil ravishda tanishib borish (bankning rasmiy veb-sayti www.ipotekabank.uz, bankning axborot stendlarida va hokazo).

4.2.5. Hisobvaraqa mablag' mavjud bo'lganda ish xaqi, pensiya va nafaqalar olishning kalender jadvaliga muvofiq naqd pul olish uchun pul chekini yoki bunday to'lovlarini alohida shartnoma asosida xodimlarning plastik kartalariga o'tkazib berish bo'yicha (DSI va boshqa fondlarga oylik ish xaqqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha qarzdorligi yo'qligi ko'rsatilgan xolda) topshiriqnomaga va reestr (xodimlar ro'yxati)ni taqdim etish.

4.2.6. Naqd pul tushumlarini amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq bankka topshirish.

4.2.7. Asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida to'lovlarini amalga oshirishda to'lovlarini o'tkazishdagi bank komissiyasi uchun yetarli pul mablag'lariiga ega bulish.

4.2.8. O'z hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmani yoki hisobvarag'i haqidagi ma'lumotni olgan kundan e'tiboran ikki ish kuni davomida o'z hisobvarag'iga begona mablag' kelib tushganligi haqida xabar berish;

4.2.9. Majburiy to'lovlar uchun o'zining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida pul mablag'lariiga ega bo'lish. Asosiy depozit hisobvarag'ida muddati o'tgan pul majburiyatlari (2-

sonli kartoteka) mavjud bo‘lgan hollarda o‘zining barcha ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi barcha pul mablag‘larini asosiy depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish.

4.2.10. Bank xizmatlari uchun xizmat haqi to‘lovini mazkur shartnomaning 6-bo‘limida belgilangan tartibda amalga oshirish.

4.2.11. Xorijiy davlat sub’ektlari bilan tuzilgan kontraktlar bo‘yicha amalga oshirilgan eksport-import operatsiyalari yuzasidan barcha hujjatlarni, shuningdek, zarur hollarda qonunchilik bilan nazorati Bank zimmasiga yuklatilgan boshqa amaliyotlar yuzasidan ma’lumotlar va barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish.

4.2.12. O‘z nomi, manzili, telefon raqamlari, elektron manzili (hokazo aloqa vositalari), yuqori tashkiloti va mijozning holatini belgilovchi boshqa tafsilotlar o‘zgarganligi to‘g‘risida besh ish kunida Bankka yozma tarzda xabar berish.

4.2.13. O‘z kassasida kassa operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka qat’iy rioya etish, bank kassasidan olingen naqd pul mablag‘larini faqat maqsadga muvofiq ishlatalishini ta’minalash, deponentlangan ish haqi, pensiya va nafaqalarni ushbu maqsadlar uchun bankdan naqd pul olingen kunning to‘rtinchi kunidan kechiktirmagan holda bank kassasiga topshirish.

4.2.14. Mijoz amalga oshirayotgan operatsiyaning boshqa ishtirokchilarini identifikatsiyalash imkonini beruvchi hujjatlarni taqdim etish.

4.2.15. Hisobvaraqdan erkin foydalanishiga uchinchi shaxslar tomonidan cheklov o‘rnatalishi bilan bog‘liq nizolarni bankning ishtirokisiz hal qilish.

4.2.16. Mijoz internet-bank tizimi orqali kelib tushgan elektron to‘lov talabnomalari bilan tizimga ulangan vaqtida tanishishi va elektron talabnomalarni uch ish kuni davomida akseptlash, akseptlashdan to‘la yoki qisman bosh tortishi va bu xaqida internet-bank tizimi orqali bankka xabar berish.

4.2.17. Mijoz nomidan masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi va uning nomiga elektron kalit uchun javobgar doimiy mas’ul shaxsnii tayinlash.

4.2.18. “Internet-bank” tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish va elektron kalit olish uchun Mijozning mas’ul shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bank tomonidan ko‘rsatilgan ilovalarga muvofiq taqdim etish.

4.2.19. Bankda o‘rnatalgan ish rejimiga va “Internet-bank” tizimi ish tartibiga rioya etish.

4.2.20. Bank talabiga ko‘ra “Internet-banking” tizimi orqali o‘tkazilgan to‘lovlariga taalluqli o‘z moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq zarur ma’lumotlarni taqdim etish.

4.2.21. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu shartnomaning barcha talablariga rioya etish.

4.2.22. “Internet-bank” tizimidan foydalanish uchun minimal texnik talablarning bajarilishini ta’minalash, ya’ni:

- USB portiga ega va Windows XP SP2 operatsion tizimi o‘rnatalgan shaxsiy kompyuterga ega bo‘lish, jumladan;
- Internetga chiqish kanaliga ega bo‘lish;
- Hujjatlarni chop etish uskunasi bo‘lishi;
- Internet Explorer v6.0 dasturiy ta’mintoni shaxsiy kompyuterda mavjud bo‘lishi.

4.2.23. Bank tomonidan berilgan elektron kalit(lar)dan faqatgina “Internet-bank” tizimida ishslash uchun foydalanish.

4.2.24. Elektron hujjatlarning barcha rekvizitlarini to‘g‘ri va aniq ko‘rsatish.

4.2.25. Bank tomonidan berilgan elektron kalit(lar) yordamida Mijozning raqamli elektron imzosi bilan imzolangan barcha elektron to‘lov hujjatlari uchun to‘liq javobgarlikka ega bo‘lish.

4.2.26. Elektron kalit(lar) yo‘qotilgan yoki ishdan chiqqanda bu haqda shu kunning o‘zida Bank mas’ul xodimi va “Internet-bank” tizimi administratorini yozma ravishda xabardor qilish. Olingen elektron kalit(lar) yo‘qotilgan yoki ishdan chiqqanda (jismonan yoki dasturiy jihatdan),

shuningdek, Mijoz tomonidan qo'shimcha kalit talab qilinganda, yangi kalit(lar) Mijoz bank tarifida belgilangan miqdordagi to'lovni amalga oshirgandan so'ng taqdim qilinadi.

4.2.27. Olingen elektron kalit (elektron raqamli imzo bilan), "Internet-bank" va "Mobil-bank" tizimlariga kirish parollarini, shuningdek, "Mobil-bank" tizimi o'rnatilgan mobil qurilmani va ushbu qurulmaga yuborilgan SMS-xabarlardagi kodlarni uchinchi shaxslarga bermaslik.

4.2.28. Bank hisobvarag'i va/yoki telefon raqami o'zgaradigan bo'lsa ma'lum qilish.

4.2.29. Hisobvarag' aylanmalari bo'yicha keladigan SMS xabar ma'lumotlarni telefon qurilmadan uchinchi shaxslarga tarqalish tavakkalchilik xatarini o'z zimmasiga olish.

4.2.30. Telefon qurilma va/yoki telefon operatori nosozligi sababli SMS xabarlar olinmasa bankka e'tiroz bildirmaslik.

4.2.31. Mijozning mas'ul shaxsi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda yoki uning xizmat vazifalari o'zgarganda yoxud boshqa biror-bir o'zgarishlar sodir bo'lganda, bu haqda o'zgarish sodir bo'lgan kundan keyingi bank ish kunidan kech bo'lmagan xolda yozma ravishda xabardor qilish. Mijoz tomonidan mas'ul shaxs o'zgargan va bu o'zgarish haqida Mijoz Bankni mazkur shartnomaning ushbu bandida nazarda tutilgan muddatda xabardor qilmagan holatda, Bank elektron kalitni boshqa shaxsga (o'zgargan mas'ul shaxsga) qayta rasmiylashtirilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

4.2.32. Mijoz "Internet-bank" va "Mobil-bank" tizimlaridan 6 oy mobaynida sababsiz foydalanmaganda, unga biriktirilgan elektron raqamli imzo bilan birga elektron kalit(lar)ni butun va ish holatida Bankka 3 ish kunida qaytarish;

4.2.33. Ushbu shartnomasi bekor qilingan paytdan boshlab, "Internet-bank" tizimidan o'chirish uchun elektron raqamli imzo bilan birga elektron kalit(lar)ni butun va ish holatida Bankka qaytarish;

4.2.34. Amaldagi qonun hujjatlari muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

4.2.35. Mijozga yoki uning tegishli operatsiyalar doirasiga nisbatan cheklov choralar (sanksiyalar) mavjudligini aniqlash uchun operatsiyalarni o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish.

V. TOMONLARNING HUQUQLARI

5.1. Bankning huquqlari:

5.1.1. Mustaqil ravishda bank xizmati ko'rsatish tariflariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

5.1.2. Mijozning amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ hujjatlari talablariga, shuningdek hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish muddatlariga rioya etmaganligini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lganda, hisob-kitob-kassa operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish;

5.1.3. Mablag'larning saqlanganligi va egasiga hisobvaraqdagi mablag' miqdorida to'siqlarsiz tasarruf etish huquqining berilishini kafolatlagan holda Mijozning bank hisobvarag'idagi bo'sh mablag'laridan moliya resurslari manbai sifatida foydalanish;

5.1.4. Mijozning pul mablag'larini uning rozilgisiz hisobvarag'idan chiqarishga, ya'ni byudjet daromadiga, byudjetdan tashqari fondlarga va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa holatlarda, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollardagina ko'chirish.

5.1.5. Mijoz hisobvarag'iga to'lovchi tomonidan xato o'tkazilgan pul mablag'ni, mijozni xabardor qilgan xolda tuzatish buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan orqaga qaytarish.

5.1.6. Hisob-kitob-kassa hujjatlarining haqiqiyligiga aniq shubha tug'ilgan hollarda, bu xaqida Mijozning birinchi yoki ikkinchi imzoni quyish xuquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslariga xabar kilib, operatsiyani bajarishni rad etish.

5.1.7. Mijozning asosiy depozit hisobvarag'ida 2-sonli kartoteka mavjud bo'lgan taqdirda uning pul majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar mijozning ikkilamchi hisobvaraqlaridan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki normativ hujjatlari talablariga asosan asosiy depozit hisobvarag'iga o'tkazish.

5.1.8. Mijoz faoliyati va rahbarlari/ta'sischilar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Bank siri to'g'risida"gi va "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdim etish.

5.1.9. Mijoz hisobvarag'idagi pul mablag'lari surishtiruvchi, tergovchi qarori bo'yicha yoki sud ajrimiga ko'ra xatlanganda, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish.

5.1.10. Mijoz tomonidan uni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilmaganida mablag'larni o'tkazish bo'yicha topshiriqlarni va boshqa operatsiyalarni bajarishni rad etish. Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish operatsiyalari bundan mustasno.

5.1.11. Mijozdan olingan axborotlar (hujjatlar) ishonchliliga shubha mavjud bo'lganda, mijozlar haqidagi axborotlarning (hujjatlarning) ishonchliligini (haqiqiyligini) aniqlashtirish (verifikatsiyalash) bo'yicha tegishli tashkilotlarga murojaat qilish.

5.1.12. Mijoz tomonidan taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'riliqiga guman yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, ushbu hujjatlarning asl nusxalarini va boshqa ma'lumotlarni taqdim qilinishini talab qilish.

5.1.13. Gumanli va (yoki) shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlanganda, o'tkazilayotgan operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar yuzasidan Mijozga murojaat qilish.

5.1.14. Quyidagi hollarda Mijozga operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish:

- yuridik shaxsning boshqaruvi organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan manzili (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida;

- atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.1.15. Mijoz va/yoki mijoz operatsiyasi ishritokchilari hamda uning operatsiyalar doirasiga nisbatan cheklov choralar (sanksiyalar) kiritilganda yoki tegishli cheklovchi choralar kiritilish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdonini chegaralash, operatsiyani cheklash yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar mijozning anketasiga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va mijoz bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish.

5.1.16. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi buzgan holda rasmiylashtirilgan Mijozning elektron hujjatlarini bajarish uchun qabul qilmaslik.

5.1.17. Bank va Mijoz o'tasida texnik nizolar yuzaga kelganda, Mijozning "Internet-bank" tizimiga ulangan jihozini ko'rikdan o'tkazish.

5.1.18. Mijoz tomonidan ushbu shartnomaning boshqa shartlari buzilganda, Mijozga masofaviy xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish.

5.1.19. Mijoz yoki Mijoz tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish uchun vakolati berilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarga nisbatan shubhalar mavjud bo'lsa, Mijozga masofaviy xizmatlar ko'rsatishni bunday operatsiyalarning batafsil tafsilotlari aniqlanmaguncha to'xtatish turish.

5.1.20. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish maqsadida Mijozning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanilganligi haqida

asosli shubha bo'lganda, Mijozga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni to'xtatish va ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish.

5.1.21. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.2. Mijozning huquqlari:

5.2.1. Mijoz mazkur oferta shartnomasi bilan tanishib chiqish.

5.2.2. Agar amaldagi qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, o'z hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'larini mustaqil tasarruf etish. Mijozning topshirig'iga binoan bank hisobvarag'i bo'yicha bajarilgan barcha operatsiyalarning qonuniyligiga mijozning o'zi javobgar hisoblanadi.

5.2.3. Hisob-kitob kassa xizmati ko'rsatish bo'yicha Bankka topshiriq berish, inkasso bo'yicha so'rovga javob olish, topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish.

5.2.4. Ish haqi, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga muvofiq ish haqi to'lovi va amaldagi qonunchilikda nazarda utilgan boshqa to'lovlar uchun hisobvaraqdagi mablag'lar doirasida naqd pul mablag'lari olish yoki alohida shartnoma asosida plastik kartaga o'tkazish.

5.2.5. Bank aybi bilan ko'rilgan zararlarning qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

5.2.6. Zarur hollarda Bankdan naqd pulsiz hisob-kitoblarga doir qoidalari va ushbu qoidalarga kiritiladigan o'zgartirishlar to'g'risidagi axborotlarni olish.

5.2.7. Bank xizmatlari va tariflari haqida ma'lumotlar olish.

VI. BANK XIZMAT HAQI VA UNI TO'LASH TARTIBI

6.1. Ushbu shartnomani imzolayotib, Mijoz bank xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan, shu jumladan bank tariflari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi.

6.2. Mijoz Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bank tariflariga muvofiq haq to'laydi.

6.3. Bankning xizmatlari uchun haq bank operatsiyasi bajarilayotgan vaqt bilan bir paytda mijozning hisobvarag'ida turgan pul mablag'laridan bank operatsiyasi bajarilayotgan kunda amalda bo'lgan Bank tariflarida belgilangan miqdorlarda akseptsiz tarzda undirib olinadi.

6.4. Bank xizmat ko'rsatish shartlarining, shu jumladan bank tariflari o'zgarishi haqida, bunday o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin bankning rasmiy veb-saytida (www.ipotekabank.uz) va bankning axborot stendlarida e'lon qiladi.

6.5. Mijoz ushbu shartnomada keltirilgan majburiyatlarini bajarmaslik natijasida yoki Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra tariflarga kiritilgan o'zgartirishlardan xabarsiz bo'lishi Bankning o'zgartirilgan tariflar bo'yicha Mijozdan haq olishiga to'sqinlik qilmaydi.

VII. KORPORATIV KARTALARNI CHIQARISH VA UNDAN FOYDALANISH SHARTLARI

7.1. Korporativ kartalarni chiqarish uchun Mijoz Bankka quyidagi xujjalarni taqdim etadi:

- ariza;
- tashkilot raxbari tomonidan imzolanib, tasdiqlangan xodimlar ro'yxati;
- ro'yxatda keltirilgan xar bir xodimning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

7.2. Bank tomonidan korporativ karta karta egasiga yoki Mijoz tomonidan berilgan ishonchnoma asosida bevosita vakolatl shaxsga topshiriladi.

7.3. Karta Mijozning mas'ul shaxsiga (Karta egasiga) topshirilgan vaqtadan boshlab Kartalar yordamida amalga oshirilgan barcha amaliyotlar uchun Mijoz javobgar xisoblanadi.

7.4. Karta hisobvarag'iga mablag'larni birlamchi kirim qilish Bank tariflarida nazarda utilgan kartani berish shartlariga asosan amalga oshiriladi.

7.5. Karta hisobvarag'iga joylashtirilgan pul mablag'lari faqat O'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi naqd pulsiz xisob-kitoblar uchun ishlatalishi mumkin:

1) Mijoz xodimlarini O'zbekiston Respublikasi xududi bo'yicha safarga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni naqd pulsiz to'lash uchun,

2) Mijozning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;

3) Mijozning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish;

4) O'zbekiston Respublikasi xududida vakillik xarajatlarini naqd pulsiz to'lash uchun.

Yuqorida keltirilgan amaliyotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi konunchiligiga, Markaziy Bank normativ xujjatlariga, ushbu shartnoma shartlariga xamda ko'rsatilgan turdag'i xisobvarag'lar bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish uchun bank tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

7.6. Karta yordamida ish xaqi va ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish mumkin emas.

7.7. Karta yo'qotilgan taqdirda Mijoz darxol belgilangan tartibda Kartaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida Bankni xabardor qiladi.

7.8. Kartaning amal qilish muddati tugaganida yoki Bank tomonidan Kartani qaytarish yozma ravishda talab qilinganida, Mijoz yetti kalendar kuni ichida Kartani Bankka qaytarishni ta'minlashi lozim.

7.9. Karta egasi bo'lган xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinayotganda, Mijoz xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinayotgan sanadan kechiktirmasdan Karta Bankka qaytarilishini ta'minlashi lozim.

7.10. Ilgari yo'qolgan deb ma'lumot berilgan Karta topilgan taqdirda, darxol bu xaqda Bank xabardor qilinishi va Kartani uch ish kuni ichida Bankka kaytarilishi kerak.

7.11. Mijoz Karta egasini kartaga tushadigan mablag' miqdori to'g'risida xabardor qiladi.

7.12. Mijoz Karta egasi tomonidan Karta yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi hisobotlarni Mijozning buxgalteriga saqlash uchun topshirishini nazorat qilib boradi.

7.13. Texnik nosozliklar (aloqa uzilishi, karta bloklanib qolishi, kartaning amal qilish muddati tugashi va boshqalar) tufayli Kartaga o'tkazilayotgan pul mablag'lari Kartaga ikki marotaba kirim qilingan taqdirda, ortiqcha kirim qilingan pul mablag'lari hisobdan chiqarish uchun Mijoz darxol Bankni xabardor qilishi shart.

7.14. Bank Karta orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha quyidagi hollarda Mijoz oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi:

- Mijoz Karta orqali amaliyotlarni amalga oshirishda ushbu shartnomada o'rnatilgan qoida va tartibni buzganda;

- Mijoz tomonidan o'tkazilgan to'lov amaliyot to'g'risida hujjat yoki axborotlar yo'qligida;

- Mijoz tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilganda.

VIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlar ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarga riosa kilmaganliklari uchun mazkur shartnoma va qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

8.2. Bank Mijoz hisobvarag'i orqali amalga oshiriladigan amaliyotlarni o'z vaqtida va belgilangan tartibda amalga oshirilishiga javobgardir.

8.3. Bankka haqiqiy bo'lman hujjatlar yoki ma'lumotlar taqdim qilganligi, shuningdek mazkur shartnomaning boshqa shartlarini bajarmaganligi uchun (Bank tomonidan Mijozning aybi hujjatlar asosida tasdiqlangan holda) Mijoz Bankka bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida jarima to'laydi.

8.4. Mijoz Bankka hisobotlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun javobgar.

8.5. Mijoz operatsiyalarning qonuniyligi va pul mablag'larining qonunga muvofiq qat'iy belgilangan maqsadda ishlatalishi uchun javobgar. Mijoz operatsiyalari yuzasidan bankka nisbatan qo'llanilgan jarimalar (penyalar) Mijoz tomonidan bankka qoplab beriladi.

8.6. Bank Mijozning shartnomaviy majburiyatlarini bajarmagani yoki tegishli ravishda bajarmagani uchun kreditorlarga to'lashi lozim bo'lgan penyani hisoblashga va undirishga javobgar emas.

8.7. To'lov hujjatlarining rasmiylashtirilishi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riliqi, o'zining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan to'lovlar uchun mijoz javobgar hisoblanadi.

8.8. Internet-bank orqali yuborilgan elektron talabnomalarni to'g'ri akseplanganligiga yoki rad etilganligiga mijoz javobgar hisoblanadi.

8.9. Bank quyidagi holatlar natijasida ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi (yoki bajarish imkonini bo'limganligi) uchun javobgarlikka tortilmaydi:

- Fors-major holatlar, elektr tarmog'ida yuz bergan uzilishlar yoki banklararo elektron to'lovlar tizimida vujudga kelgan texnik uzilishlar (boshqa turdag'i elektron to'lovlar tizimiga o'tish, yangi dasturlarni sinash va joriy etish, Bank faoliyatiga taalluqli bo'limgan boshqa holatlar) vujudga kelganda;

- Mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlarining qonunchilik hujjatlari talablariga javob bermasligi aniqlanganda va ijro qilinmaganda;

- Bank yoki Mijozning hisobvarag'idagi operatsiyalarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib qo'yilganda;

- O'rnatilgan texnik talablarning Mijoz tomonidan buzilganda;

- Jo'natuvchining elektron hujjatlarida xatoliklarga va noaniqliklarga yo'l qo'yilganda;

- Bank amaliyotlari Mijoz tomonidan masofaviy bank tizimi orqali rasmiylashtirilgan elektron hujjatlar orqali avtomatlashtirilgan tarzda bajarilganda.

8.10. Mazkur shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida jarima (neustoyka)larning undirilishi (to'lanishi) tomonlarni o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

IX. FORS-MAJOR HOLATLAR

9.1. Shartnoma tuzilganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suv toshqini, yong'in, zilzila va tabiiy ofatlar, siyosiy larzalar, embargo, harbiy harakatlar kabi sabablar tufayli ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda tomonlar javobgarlikdan to'liq yoki qisman ozod etiladi.

9.2. Yuzaga kelgan Fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtidan boshlab, uch bank kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

9.3. Fors-major holatlari o'ttiz kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

X. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10.1. Mazkur shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan kundan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi va amal qilish muddati cheklanmaydi.

10.2. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bankning veb-sayti va bank filial stendlari orqali mijozlarga ma'lum qilinadi.

10.3. Mazkur shartnoma Mijoz talabiga ko'ra u xohlagan paytda, agar uning bank oldida qondirilmagan majburiyatları mayjud bo'lmasa, bu haqda Bankni o'n kun oldin yozma ravishda xabardor qilish sharti bilan bekor qilinadi.

10.4. Shartnoma bekor qilingan sanadan boshlab yetti kun davomida Bank Mijozning hisobvarag'ini yopadi va Mijozning yozma arizasiga muvofiq mablag' qoldig'ini boshqa hisobvaraqqqa o'tkazadi. Shartnoma bekor qilingan sanadan e'tiboran yetti kun davomida Mijoz mablag'larini boshqa hisobvaraqqqa o'tkazish to'g'risida yozma ko'rsatma bermasa, Bank bir

tomonlama tartibda Mijozning hisob-kitob hujjatlarini va chekclarini ijro uchun qabul qilishni to'xtatib qo'yadi.

10.5. Ushbu shartnoma Bankning talabiga ko'ra sud orqali quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

a) Mijozning hisobvarag'ida saqlanayotgan pul mablag'lari summasi bank qoidalarida nazarda tutilgan eng kam miqdordan oz bo'lsa, agar bunday summa bank bu haqida ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

b) ushbu hisobvaraq bo'yicha bir yil davomida operatsiyalar amalga oshirilmagan bo'lsa.

10.6. Ushbu shartnomaning bekor qilinishi Mijoz hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

XI. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

11.1. Mazkur shartnomani ijro etish masalalari bo'yicha Bank va Mijoz o'tasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda tomonlar ularni o'zaro muzokaralar yordamida hal qilish uchun barcha choralarini ko'radilar. Mazkur shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizoni hal qilish uchun tomonlar o'z e'tirozlarini (talablarini) ikkinchi tomonga yozma tarzda yuborishlari shart.

11.2. Muzokaralar olib borish orqali taraflar bir to'xtamga kela olmaganda, bahslar va kelishmovchiliklar iqtisodiy suda amaldagi qonunchilikka muvofiq ko'rib chiqiladi va hal etiladi.

11.3. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitoblariga oid o'zaro nizolari ular tomonidan Bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

11.4. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan barcha masalalar amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

11.5. Mijozning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibi tomonlar uchun majburiy hisoblanuvchi Markaziy bank normativ hujjatlari bilan belgilanadi.

11.6. Mazkur shartnoma Bank tomonidan oferta qilingan. Bank hisobvarag'i bo'yicha munosabatlarni belgilovchi har qanday Bank tomonidan oferta qilinmagan bitim haqiqiy emas.

11.7. Ushbu shartnoma qoidalari tomonlar o'tasidagi bank hisobvarag'i qoidalari tartibga soluvchi boshqa har qanday bitim qoidalardan ustun turadi. Bank va Mijoz o'tasida ushbu shartnoma qoidalardan jiddiy farq qiluvchi har qanday bitim haqiqiy emas hisoblanadi.

11.8. Ushbu shartnoma bo'yicha Bank Mijozni bevosita xabardor qilishni o'z zimmasiga olgan har qanday xat-xabarlarini (talabnomalar, ogohlantirish xatlari, informatsion ma'lumotlar va hokazo) Bank Mijoz tomonidan bank hisobvarag'i ochish to'g'risidagi arizaga muvofiq Bankka taqdim qilgan xabarnomada ko'rsatilgan aloqa vositalaridan biriga (pochta, telefon, elektron pochta va hokazo) o'z ixtiyoriga ko'ra qog'oz, sms yoki elektron xat ko'rinishida yuborishga haqli.

11.9. Mijoz tomonidan to'lov qaydnomasi adashib jo'natilganligi aniqlanganida, Mijoz zudlik bilan bu haqda yozma ravishda Bankni xabardor qiladi.

XII. BANK REKVIZITLARI

Nomi: «Ipoteka-bank» ATIB Bosh ofisi

Manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 30

STIR: 202858483

MFO: 00937

Litsenziya: 2021 yil 25 dekabrdagi 74-sonli

Sayt: www.ipotekabank.uz

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASIGA ILOVA

KOMPLAYENS SHARTLARI

1. MAQSAD VA TUSHUNCHALAR

1.1 Ushbu Komplayens shartlarining maqsadi (keyingi matnlarda “**Shartlar**” deb yuritiladi) “Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish” (keyingi matnlarda “**JFODL/TM/OQQTMQK**” deb yuritiladi), “Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish” (keyingi o'rnlarda “**PKQK**” deb yuritiladi), Sanksiyalar va eksportni nazorat qilish choralarini (keyingi matnlarda “**Sanksiyalar**” deb yuritiladi) sohalarida yuzaga keladigan tomonlar uchun xavflarni bartaraf etishni ko'rib chiqish hisoblanadi.

Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish - jinoyat sodir etish natijasida olingen pul yoki boshqa mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish yoki ularni tasarruf etishni qonuniylashtirish.

Terrorizmni moliyalashtirish - terroristlar va terrorchilik faoliyatini moliyalashtirish yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

Korrupsiya - shaxs (bank xodimlari) tomonidan moddiy yoki nomoddiy manfaat olish uchun shaxsiy manfaatlar yoki boshqa shaxslarning manfaatlari uchun o'z mansab yoki xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi, shuningdek, bunday foydani qonunga xi洛f ravishda taqdim etishidir.

Poraxo'rlik - oluvchiga ta'sir qilish va u tomonidan noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirilishiga erishish maqsadida pora berish, va'da qilish yoki ruxsat berish, qimmatbaho narsalarni olish yoki taqdim etishva/yoki oluvchi tomonidan ma'lum bir manfaatga ega bo'lish noqonuniy hisoblangan holatlardir.

Sanksiya: moliyaviy va aktivlar bilan bog'liq cheklov, choralar, sanksiyalar qo'llovchi organlar tomonidan kiritilgan, qo'llaniladigan yoki amalga oshiriladigan iqtisodiy va savdo cheklovlari yoki embargolar.

Sanksiyalar ro'yxati: Sanksiyalar ostida bo'lgan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar, hududlar, mamlakatlar, mahsulotlar va xizmatlar ro'yxati.

Eksport nazorati tovarlar, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlarni import qilish, eksport qilish, reeksport qilish, o'tkazmalar, chiqarilishi, jo'natalishi, topshirilishi yoki har qanday ta'minoti yoki qabul qilinishini tartibga solish bilan bog'liq qonun yoki qoidalarni, shuningdek davlat organlariga nisbatan qo'llaniladigan va ular tomonidan qabul qilingan shunga o'xshash har qanday qonunlar yoki qoidalarni anglatadi.

Sanksiya tavakkalchiligi - bu bank operatsiyalari obyekti, uning asoschisi, benefitsiari yoki nazorat qiluvchi shaxs AQSh, Yevropa Sanksiyalari yoki davlatlar va xalqaro yurisdiksiyalar tomonidan qabul qilingan boshqa Sanksiyalarga tushib qolish ehtimolidir.

Bloklangan shaxs - (a) mol-mulki yoki mol-mulkka bo'lgan huquqi har qanday Sanksiyalar bilan bloklangan, (b) Sanksiyalarga muvofiq aktivlari muzlatib qo'yilgan, (c) tegishli Sanksiyalar yoki eksport nazorati choralar bo'yicha bitimlar tuzish taqiqlangan yoki (d) bunday shaxsga tegishli yoki nazorat ostida bo'lgan har qanday shaxs.

Moliyaviy firibgarlik – pul muomalasi sohasidagi noqonuniy xatti-harakatlarni firibgarlik, ishonchni suiste'mol qilish va noqonuniy boyitish maqsadida boshqa manipulyatsiyalar orqali amalga oshirish.

Mijoz – mazkur Komplayens qoidalari qo'llaniladigan “Ipoteka-bank” ATIB (keyingi matnlarda “Bank” deb yuritiladi) bilan tuzilgan shartnomada belgilangan tomon, yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

Affillangan shaxslar - mijozning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Korrespondent bank – “Ipoteka-bank” ATIB bilan hamkorlik aloqalariga ega bo'lgan va vakillik shartnomasi asosida Bank topshirig'i bo'yicha to'lovlari, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni amalga oshiruvchi bank.

SRQSH - Sanksiyalarga rioya qilish shartlari.

II. HUQUQIY ASOSLAR

2.1 Ushbu band doirasida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga riosa qilish va xalqaro standartlarga amal qilish majburiyatini oladi.

2.2. Mahalliy talablar quyidagi hujjatlarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun.

- "Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun.

- 2017-yil 23-maydagi 2886-sonli "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha" ichki nazorat qoidalari.

-JFODL/TM/OQQTMQK va Sanksiyalar sohasidagi bank tartib-qoidalari hamda SRQSH .

2.3 Xalqaro standartlarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviv choralar ishlab chiquvchi guruh (FATF) tavsiyalari.

- ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi samarali tizimni qurishning xalqaro modelini o'z ichiga olgan xalqaro standartni ifodalaydi.

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi (BMT Xavfsizlik Kengashi), Yevropa Ittifoqi (Yel), AQSh Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC), AQSh Davlat departamenti, AQSh Savdo Departamenti (Sanoat va xavfsizlik byurosi – SXB), Buyuk Britaniyaning sanksiya siyosatini amalga oshirishga mas'ul agentligi yoki boshqa vakolatli sanksiya organlari tomonidan ishlab chiqilgan Sanksiya ro'yxatlari.

- Bank bilan korrespondent aloqalarni o'rnatgan banklarning JFODL/TM/OQQTMQK, SRQSH hamda Sanksiyalar sohasidagi talablari.

III. XALQARO SANKSIYALAR

3.1. Ushbu Komplayens shartlaridagi Xalqaro sanksiyalar atamasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi, AQSh Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC), AQSh Davlat departamenti, AQSh Savdo vazirligi (Sanoat va xavfsizlik byurosi), tegishli Buyuk Britaniya agentligi yoki boshqa vakolatli sanksiya organi tomonidan kiritilgan yoki qo'llaniladigan moliyaviv va moddiy cheklovchi choralar, iqtisodiy va savdo cheklovlari va embargolarni anglatadi.

3.2. Mazkur bo'linda "Shaxs" tushunchasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan har qanday davlat yoki xususiy korxona, shu jumladan hukumat tashkiloti, shuningdek yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan har qanday jismoniy shaxsni anglatadi.

3.3. Ushbu Sanksiya shartlaridagi "cheklov choralar qo'llanilgan shaxs" deb Xalqaro sanksiyalar ostidagi tashkilot/shaxs, shu jumladan, ammo ushbu bilan cheklanmagan holda:
a) AQShning tegishli departamenti yoki agentligi tomonidan kiritilgan Sanksiyalar qo'llanilgan shaxslar (jumladan, OFAC ro'yxatiga kiritilgan shaxslar "Maxsus ro'yxatga kiritilgan fuqarolar va bloklangan shaxslar" yoki "Xorijiy sanksiyalardan bo'yin tovlaganlar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar") yoki ellik foiz (50%) ulushi yoki undan ko'p bir yoki bir nechta shaxslarga tegishli bo'lgan shaxslar; yoki

b) Yevropa Ittifoqi tomonidan kiritilgan moliyaviv va mulkiy cheklovlarga duchor bo'lgan shaxslar (Yevropa Ittifoqining konsolidatsiyalangan Sanksiyalar ro'yxatiga asosan); yoki
(i) ellik foiz (50%) yoki undan ko'p miqdordagi ulushi bir yoki bir nechta bunday Shaxs(lar)ga tegishli bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi Shaxs(lar) yoki
(ii) bunday Shaxs nomidan yoki uning rahbarligi ostida harakat qiladigan har qanday Shaxs

c) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi tomonidan jotiy etilgan moliyaviv va aktivlarni cheklash choralar qo'llanilayotgan shaxslar;

d) Buyuk Britaniya G'aznachiligi tomonidan qo'yilgan moliyaviv va mulkiy cheklovlar ostida bo'lgan shaxslar;

e) Ro'yxatga olingen, litsenziyaga ega bo'lgan yoki keng qamrovli sanksiyalar qo'llaniladigan mamlakat yoki hududning fuqarosi (rezidenti) bo'lgan shaxs (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Birma/Myanma, Qrim, Kuba, Eron, Shimoliy Koreya, Sudan, Suriya va

Venesuela, lekin vaqt o'tishi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarni hisobga olgan holda).

3.4. Mijoz uning o'zi, ta'sischilari (jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, uning benefitsiar mulkdorlari), uning nazorati ostidagi yoki u tomonidan ellik foiz (50%) ulushiga egalik qilinuvchi sho'ba korxonalari (mijozning o'zigategishli sho'ba korxonalari (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan)dagi birlgiligidagi ulushi hisobga olinadi) yoki har qanday direktor, mansabdar shaxs, xodim, agent, har qanday yuridik shaxsning sho'ba korxonasi yoki Mijozning har qanday vakili:

i) uning egasi yoki benefitsiar mulkdori cheklov choralar qo'llanilgan Shaxslar emasligi;
ii) Bankdagi to'lov hisobvaraqlariga yoki muddatli depozit sifatida cheklov choralar qo'llanilgan Shaxsga tegishli yoki uning nazoratida bo'lgan har qanday mablag'larni bevosita yoki bilvosita cheklovchi choralar qo'llanilgan shaxsga tegishli bo'lgan yoki yuqoridagi bo'limning 3.3(e) bandida keltirilgan keng qamroqli xalqaro sanksiya ostidagi mamlakat yoki hududdan mablag'larni joylashtirmaslikni tasdiqlaydi.

3.5. Mijoz Bankdan olingan har qanday moliyalashtirishni bevosita yoki bilvosita (to'liq yoki qisman) foydalanmaslik, qarz bermaslik, to'lovlarni amalga oshirmaslik, hissa qo'shmaslik yoki boshqacha tarzda taqdim etmaslik, shuningdek bankda ochilgan to'lov hisobvaraqlari orqali to'lov topshiriqnomalarini o'tkazmaslik majburiyatini oladi.

a) savdo, tijorat yoki boshqa faoliyatni moliyalashtirish maqsadida, bunday moliyalashtirish yoki faoliyatni amalga oshirish davomida va Bank bilan shartnomaviy munosabatlari davrida Xalqaro sanksiyalar qo'llanilgan har qanday shaxsning manfaati uchun yoki yuqoridagi bo'limning 3.3 e) bandida belgilangan har qanday mamlakat yoki hudud, bunday moliyalashtirish yoki faoliyatni amalga oshirish vaqtida va Bank bilan shartnomaviy munosabatlari davrida ushbu mamlakat yoki hududga nisbatan qo'llaniladigan Xalqaro sanksiyalar qo'llanilgan yoki

b) Xalqaro sanksiyalarning buzilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa yo'l bilan yoki

c) har qanday Xalqaro sanksiyalarni bevosita yoki bilvosita chetlab o'tish ga qaratilgan har qanday operatsiyani amalga oshirish (shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, mijoz (yoki unga aloqador har qanday tashkilot) cheklovchi choralar ko'rilgan har qanday shaxs nomidan yoki uning manfaati uchun harakat qilganda).

3.6. Agar mijozga yoki unga aloqador yuridik shaxsga nisbatan olib borilayotgan yoki kelajakda qo'zg'atilishi kerak bo'lgan har qanday jinoiy yoki boshqa rasmiy ish yuritish natijasida Bank biror - bir zarar ko'rsa, mijoz bankka bunday ish yuritish natijasida etkazilgan har qanday zararni qoplashni o'z zimmasiga oladi.

3.7. Bank shartnoma tuzishdan oldin ham, shartnoma tuzilgandan keyin ham mijoz ushbu bo'lim shartlariga riosa qilishini tekshirish huquqiga ega. Bankning tekshirish o'tkazish huquqini amalga oshirishga ko'maklashish uchun mijoz bank tomonidan talab qilinadigan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni (shu jumladan, Xalqaro sanksiyalar, xususan, ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday operatsiyalar va ularning ishtiropchilariga tegishliligini baholash maqsadida zarur bo'lgan tafsilot va ma'lumotlarni) bank tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etish majburiyatini oladi.

3.8. Agar mijoz va bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar tuzilgan vaqtida yoki uning amal qilish muddati davomida Xalqaro sanksiyalarga nisbatan mijoz bayonotlaridan biri (i) noto'g'ri, (ii) yolg'on yoki (iii) chalg'ituvchi bo'lsa yoki Mijoz Xalqaro sanksiyalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa, bank shartnomalarni darhol bekor qilish, shuningdek, kafolat berish bo'yicha kredit shartnomalarini bekor qilish huquqiga ega. (shu jumladan, ammo ular bilan cheklanmagan holda, ma'lumot berish majburiyatini buzish yoki Bank tomonidan tekshirish o'tkazish huquqini bermaslik).

IV. MIJOZNING HUQUQLARI

4.1 Mijoz Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishganidan so'ng, mijoz Bankka 2.2-bandda ko'rsatilgan qonun hujjatlariga va ushbu bandning 2.3 va 3.1-3.8-bandlarida ko'rsatilgan xalqaro standartlarga riosa qilishini tasdiqlaydi, xususan mijoz:

- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирғин qurolini tarqatishni moliyalashtirishni amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida moliyaviy firibgarliklarda qatnashmaydi;
- Bank xodimiga pora taklif qilmaydi yoki bermaydi; bank xodimididan pora olmaydi;
- Bank nomidan uchinchi shaxslarga pora taklif qilmaydi yoki bermaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan tomon bilan bitimlar tuzmaydi va bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida affillangan shaxslari (aloqador shaxslar) Sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan tomon bilan bitimlar tuzmaydi va bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- eksport nazorati ostida bo'lgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan uchinchi shaxslar bilan bitimlar tuzmaydi va bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan banklar (shu jumladan ularning filiallari) orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- bitimlar, shartnomalar, bitim ishtirokchilar, tovarlar va xizmatlar, shuningdek Bank bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlar doirasida pul oqimlari to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq va oshkora taqdim etilishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va xalqaro standartlarga zid bo'lgan har qanday noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirmaydi;
- mijozning ushbu qoidalarga rioya qilmasligi natijasida kelib chiqqan zarar, xarajatlar, yo'qotishlar, majburiyatlar, jarimalar, penyalar va/yoki xarajatlarni (shu jumladan, advokatlarning to'lovleri va xarajatlarini) qoplash uchun bankni javobgarlikdan ozod qiladi.

V. BANKNING HUQUQLARI

- 5.1 Agar mijoz ushbu bandning talablarini buzsa, bank mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni hech qanday javobgariksiz bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.
- 5.2 Agar vakillik banklari tomonidan bankka nisbatan Sanksiyalar yoki boshqa cheklovchi choralar qo'llanilishi xavfi mavjud bo'lsa, bank hisobraqamini ochish va bank operatsiyalarini amalga oshirishni rad etishga haqlidir.